



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA
KOMPANIYASINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI**

**ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ КОМПАНИЙ В
ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**TELECOMMUNICATIONS COMPANY DEVELOPMENT TREND IN THE DIGITAL
ECONOMY**

Raximova Kizlarxon Ne’matjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot
Iqtisodiyot va turizm kafedrasida o‘qituvchisi, Iqtisodiyot fanlar falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu tahliliy maqola O‘zbekistonning milliy mobil aloqa operatori — Mobiuz (avvalgi UMS) kompaniyasining bozor transformatsiyasini, mamlakat telekommunikatsiya sohasidagi joriy o‘rni va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari o‘rganadi. Maqolada Mobiuz va butun soha duch kelayotgan asosiy muammolar (yuqori CAPEX, shiddatli raqobat, raqamli sifat farqi) aniqlanadi.

Shuningdek, xususiylashtirishni yakunlash, TowerCo modeli, korporativ segmentga e’tibor qaratish va RAN Sharing kabi strategik yechimlar taklif etilgan. Tahlil operatorning barqaror o‘rni ta’minlash va O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotiga yetakchilik qilish yo‘llari ochib beradi.

Kalit So‘zlar: Mobiuz, UMS, O‘zbekiston telekommunikatsiyasi, 4G/5G, Bozor Ulushi, CAPEX, Raqamli Iqtisodiyot, TowerCo, Xususiylashtirish, RAN Sharing, Uztelecom.

В данной аналитической статье рассматривается трансформация рынка национального мобильного оператора Узбекистана, компании «Мобиуз» (ранее «УМС»), ее текущее положение в телекоммуникационном секторе страны и перспективы дальнейшего развития. В статье определены основные проблемы, стоящие перед «Мобиузом» и всей отраслью (высокие капитальные затраты, жесткая конкуренция, разрыв в качестве цифровых услуг).

Также предлагаются стратегические решения, такие как завершение приватизации, модель TowerCo, ориентация на корпоративный сегмент и совместное использование RAN. Анализ выявляет пути обеспечения устойчивого роста оператора и лидерства в цифровой экономике Узбекистана.

Ключевые слова: «Мобиуз», «УМС», телекоммуникации Узбекистана, 4G/5G, доля рынка, капитальные затраты, цифровая экономика, TowerCo, приватизация, совместное использование RAN, «Узтелеком».

This analytical article examines the market transformation of the national mobile operator of Uzbekistan, Mobiuz (formerly UMS), its current position in the country's telecommunications sector, and its future development prospects. The article identifies the main challenges facing Mobiuz and the entire industry (high CAPEX, fierce competition, digital quality gap).

It also proposes strategic solutions such as completing privatization, the TowerCo model, focusing on the corporate segment, and RAN Sharing. The analysis reveals ways to ensure the operator's sustainable growth and lead Uzbekistan's digital economy.

Keywords: Mobiuz, UMS, Uzbek telecommunications, 4G/5G, Market Share, CAPEX, Digital Economy, TowerCo, Privatization, RAN Sharing, Uztelecom.

Jahon Banki va Xalqaro Telekommunikatsiya Birlashmasi ma’lumotlariga ko‘ra telekommunikatsiya xizmatlaridan olingan umumiy daromad (jahon miqyosida) qariyb 20% global

YaIMni tashkil qilgan [1]. Bu esa ushbu sohaning iqtisodiyotda va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar sohasini rivojlantirish uchun muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Davlat boshqaruvi, davlat xizmatlari va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalaridagi islohotlar tufayli so‘nggi yillarda fuqarolarga ancha oson sharoitlar yaratildi, hamda boshqaruv va davlat xizmatlari tizimlari shaffoflashdi. 2024-yilda mamlakatda telekommunikatsiya tizimini boshqarish va rivojlantirishning tamoman yangi davri boshlandi.

Xususan, 2024-yil 27-dekabrda “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilinishi bilan uzoq yillar amal qilib kelgan eski normativ baza to‘liq yangilandi. Bu qonun tarmoqlarning davlat va xususiy sektor tomonidan boshqarilishi mumkinligini belgilab, barcha operatorlar uchun teng sharoitlar yaratdi, shuningdek telekommunikatsiya infratuzilmasiga oid zamonaviy tushunchalar rasmiy tarzda joriy etildi. Mazkur huquqiy yangilanishlar ortidan 2025-yil 21-avgust kuni Prezident qarori bilan mustaqil regulyator agentlik tashkil etildi. Ushbu agentlik litsenziyalash, tariflarni tartibga solish, raqobatni qo‘llab-quvvatlash hamda universal xizmatlar standartlarini belgilash orqali bozorning sog‘lom rivojlanishini ta‘minlashga mas‘ul etildi. Bu esa, telekommunikatsiya bozorini yanada ochiq, shaffof va foydalanuvchi-yo‘naltirilgan qilishga kuchli sur‘at berdi. Shuningdek, 2025-yil 18-sentyabrda qabul qilingan qaror bilan mobil va simli aloqa operatorlariga xalqaro internet tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanish imkoniyati berildi. Bu islohot internet trafigini erkinlashtirib, monopoliyaga chek qo‘yishga hamda mamlakatda internet tezligi, sifati va barqarorligini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Xususan, tarmoqlarni modernizatsiya qilish va 5G texnologiyalariga o‘tish bozorning kelgusi rivojlanishining markazida turadi. Shu sababli, bugun telekommunikatsiya sohasi — yurtning iqtisodiy sur‘atlari va innovatsion taraqqiyoti uchun strategik drayverga aylanmoqda. Aynan shunday sharoitda yirik operatorlar qatori “UMS/Mobiuz” kompaniyasining ham faoliyati yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bozor erkinlashgani sari kompaniya oldida — xizmatlar sifatini oshirish, raqamli ekotizim yaratish va xalqaro standartlarga uyg‘un rivojlanish kabi ulkan vazifalar turibdi.


O‘zbekiston mobil aloqa bozoridagi muhim ishtirokchilardan biri bo‘lgan "UMS/Mobiuz" kompaniyasining tarixi o‘zbek telekommunikatsiya sohasining murakkab va ayni paytda jadal rivojlanish davrlarini aks ettiradi. Kompaniyaning boshlang‘ich nuqtasi “Universal Mobile Systems” (UMS) mas‘uliyati cheklangan jamiyati hisoblanadi. UMS 2014-yil 1-dekabrda, Rossiyaning yetakchi telekommunikatsiya giganti bo‘lgan MTS (Mobil TeleSistemalar) kompaniyasi bilan O‘zbekiston hukumati o‘rtasida erishilgan kelishuv asosida qo‘shma korxona sifatida tashkil etilgan. Bu kelishuv 2012-yilda MTSning O‘zbekistondagi avvalgi shuba korxonasi bo‘lgan “Uzdunrobita”ning faoliyati to‘xtatilganidan so‘ng, kompaniyaning bozorga qaytishini anglatardi. Dastlabki ta‘sis shartlariga ko‘ra, MTS UMSning 50.01% ulushiga, O‘zbekiston tomoniga (Dastlab “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” RDU) esa 49.99% ulushga egalik qilgan. UMS o‘z faoliyatini aynan “Uzdunrobita”ning infratuzilmasi va uskunalari bazasida boshlab, qisqa fursatda mamlakatning eng yirik mobil operatorlaridan biriga aylandi.

Biroq, UMSning qo‘shma korxona sifatidagi davri uzoq davom etmadi. 2016-yil avgust oyida Rossiyaning MTS kompaniyasi o‘zining UMSdagi 50.01% ulushini O‘zbekiston tomoniga sotib, kompaniyani tark etdi. Ushbu tranzaksiyadan so‘ng, UMS to‘liq O‘zbekiston davlati nazoratiga o‘tdi [2]. Kompaniyaning ta‘sischisi o‘zgarib, vaqt o‘tishi bilan texnik va operatsion nazoratni Raqamli texnologiyalar vazirligi amalga oshira boshladi. To‘liq milliylashtirilgan UMS oldiga hukumat tomonidan mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan yanada kengroq va strategik vazifalar qo‘yildi. Aynan shu strategik transformatsiya ehtiyoji UMS brendining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. 2019-yil 2-dekabrda kompaniya o‘zining yangi savdo belgisi – Mobiuzni taqdim etdi [3]. Bu rebrending nafaqat nomning o‘zgarishi, balki kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga bo‘lgan tayyorligi ramzi edi. Yangi "Mobiuz" brendi o‘z konsepsiyasiga "g‘amxo‘rlik" va "yaratuvchanlik" g‘oyalarini singdirdi. Logotipdagi "i" harfidan taralayotgan va kengayib borayotgan nur kompaniyaning cheksiz imkoniyatlarga va istiqbolga intilishini ifodalaydi.

Bu o‘zgarish kompaniyaning an‘anaviy mobil aloqa xizmatlaridan tashqari, innovatsion raqamli mahsulotlar (masalan, mobil ilovalar, kontent platformalari va Fintex yechimlar) ekotizimini

yaratishga qaratilganligini ko‘rsatdi. Texnologik evolyutsiya nuqtai nazaridan Mobiuz (avvalgi UMS) O‘zbekistonda 2G va 3G tarmoqlari rivojlanishida faol ishtirok etgan bo‘lsa-da, uning asosiy e‘tibori 4G LTE tarmog‘ining qamrovi va sig‘imini kengaytirishga qaratildi. Ayniqsa, 2020-yillarning boshidan boshlab Xitoy kompaniyalari (masalan, Huawei, ZTE) bilan yirik investitsiya loyihalari doirasida respublika bo‘ylab, ayniqsa aholi zich joylashgan shaharlar va chekka qishloqlarda ham 4G tayanch stansiyalari jadal o‘rnatildi. Bu harakatlar mobil internet tezligi va sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, Mobiuz mamlakatda birinchilardan bo‘lib eSIM xizmatini yo‘lga qo‘ygan operatorlardan biri bo‘ldi, shuningdek, Massive MIMO FDD kabi yuqori texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va joriy etish orqali kelajakdagi 5G tarmoqlari uchun zamin yaratishga intilmoqda. Kompaniya endilikda davlat aktivlarini xususiylashtirish dasturi doirasida xalqaro investorlarga sotilish bosqichida turibdi, bu esa uning tarixida yangi sahifani ochib, keyingi rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi [4].

Mobiuz (Universal Mobile Systems, avvalgi UMS) O‘zbekiston mobil bozorining barqaror o‘yinchilaridan biri. Oxirgi yillarda kompaniya abonent bazasini kengaytirib, tarmoq infratuzilmasini modernizatsiya qilishga e‘tibor qaratdi — natijada 2024–2025 yillarda uning faoliyati tezlashdi va bozor ulushi taxminan 20–21% atrofida baholandi. Bu Mobiuzni ichki bozorida kuchli pozitsiyaga olib chiqadi, ammo raqobat ham keskin: Beeline, Ucell (Coscom), va davlatga tegishli Uztelecom asosiy raqiblar sifatida ko‘rinadi.




1-rasm. O‘zbekiston mobil aloqa bozori – operatorlar bo‘yicha ulushlar [5]

Bu rasmda, joriy yil bo‘yicha O‘zbekiston telekommunikatsiya bozorining operatorlar bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan. Unga ko‘ra, eng asosiy bozor ta‘minlovchisi Uztelecom Ltd. kompaniyasi (27% ulush bilan), undan keyingi o‘rinlarda esa Beelina, Ucell, Mobiuz – mos ravishda 24%, 23%, 21% ulushlar bilan o‘z o‘rinlariga egalar. Boshqa aloqa operatorlari esa qolgan 5% ning tarkibiga kiradi.

Telekommunikatsiya bozorida faoliyat yuritayotgan Mobiuz kompaniyasi so‘nggi yillarda o‘z pozitsiyasini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda. SWOT tahlili orqali kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar va kelajakda duch kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar aniqlanadi. Mobiuzning asosiy kuchli jihatlaridan biri — davlat ishtirokining mavjudligi bo‘lib, bu kompaniyaga strategik qo‘llab-quvvatlash va infratuzilma kengayishida ustunliklar yaratadi. Shuningdek, kompaniya viloyatlar va chekka hududlarda tarmoq qamrovini izchil rivojlantirmoqda, bu esa abonentlar bazasining kengayishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mobil aloqa operatorlari bo‘yicha abonentlar soni (taxminiy, mln)



2-rasm. O‘zbekistondagi mobil aloqa operatorlarining bozordagi abonentlar bo‘yicha ulushlari [6]

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida eng asosiy aloqa operatori Uztelecom hisoblanadi. Ucell va Beeline deyarli bir xil, 8 mln. kishi atrofida, MobiUz esa deyarli 8 mln. foydalanuvchiga ega. Sohadagi ba’zi muammolarni bartaraf qilish orqali ushbu raqamni yanada kattalashtirishga erishish mumkin. Lekin, umuman olib qaraganda bozor deyarli teng taqsimlangan va oligopoliya alomatlari seziladi.

Telekommunikatsiya sohasida rivojlanish yaxshi bo‘lishiga qaramay, ba’zi muammolar ham kuzatilmoqda, ularni yechish orqali soha rivojini yanada jadallashtirishga erishish mumkin. Quyida muammolar va ularga yechimlar haqida so‘z yuritamiz.

1. Infratuzilma va investitsiya muammolari. O‘zbekistonda 4G qamrovini tezda kengaytirish va 5Gni tatbiq etish uchun juda katta sarmoyalar talab qilinishi.

2. Yirik operatorlar orasida shiddatli raqobat va ba’zan narxlarni keskin tushirish (demping) natijasida rentabellikning pasayishi.

3. Qamrov muammolari. Chekka qishloq joylarida aloqa sifati pastligi va aholi zich joylashgan hududlarda tarmoqning yuqori yuklanishi.

4. 5G, IoT, Big Data kabi yangi texnologiyalarni joriy etish uchun yuqori malakali muhandis va dasturchilarning yetishmasligi.

Ushbu muammolarga xususiylashtirishni samaraviy yakunlash, alohida infratuzilma operatorlarini yaratish, Segmentlarga Ajratish (Niche Targeting): Faqat narxga emas, balki korporativ (B2B) mobil VPN, M2M/IoT kabi maxsus xizmatlarga e’tibor qaratish, Kontent va Raqamli Ekotizimni rivojlantirish: O‘zining Fintex (Mobil hamyon), Media yoki Edu-Tech kontent platformalarini yaratish orqali abonentlarni brendga bog‘lash, Operatorlar o‘rtasida infratuzilmani bo‘lishish orqali qamrovni arzon narxda tezda kengaytirish; Massive MIMO/5G texnologiyasini joriy etish: Trafik yuqori bo‘lgan markaziy nuqtalarda tarmoq sig‘imini oshirish; hamda korporativ ta’lim dasturlarini ishlab chiqish (kompaniyada ishlash ko‘nikmasini bera oladigan ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda tuzilgan dasturlar) orqali ularni bartaraf etish mumkin.

Mobiuz (UMS) faoliyati tahlili O‘zbekiston telekommunikatsiya bozorining jadal, ammo murakkab rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi. Milliy operator sifatida Mobiuz hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kuchli pozitsiyaga ega bo‘lib, tarmoqni modernizatsiya qilishga katta sarmoyalar kiritmoqda. Shuningdek, 4G tarmog‘ining keng qamrovini ta’minlash orqali u bozorning eng yirik uchta o‘yinchisi orasida o‘z o‘rnini mustahkamlab kelmoqda. Biroq, bu mustahkam poydevorga qaramay, kompaniya o‘z faoliyatida bir qator strategik muammolarga duch kelmoqda. Bular, avvalo, yuqori kapital xarajatlari (CAPEX), narx dempingi kuzatilayotgan shiddatli raqobat va ayniqsa qishloq joylarida raqamli xizmatlarning past sifati bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, 5G va IoT kabi yangi texnologiyalarni joriy etish uchun malakali kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ushbu tahlilda taklif etilgan yechimlar Mobiuzning kelajakdagi strategik yo‘nalishini belgilab beradi. Xususiylashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash, minoralar

infratuzilmasini ajratish (TowerCo), yuqori darajadagi korporativ (B2B) xizmatlarga e’tibor qaratish va o‘zining Fintex/Media ekotizimini rivojlantirish orqali MobiuZ nafaqat rentabellikni oshirishi, balki O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning lokomotivi bo‘lishi mumkin. Xususan, hukumat ko‘magida RAN Sharing kabi choralarni joriy etish mamlakatning barcha hududlarida aloqa qamrovini tezda yaxshilash uchun kalit bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. MobiuZ Rasmiy Ma’lumotlari (Kompaniya matbuot xizmati, moliyaviy hisobotlar va infratuzilma yangilanishlari bo‘yicha ma’lumotlar).
2. Mordor Intelligence (O‘zbekiston telekommunikatsiya bozori tahlili va prognozlar).
3. <https://www.google.com/search?q=Uzbekistanesim.com> / Turli Internet Nashrlari (Mobil aloqa tezligi sinovlari, operatorlar taqqoslari va abonent bazasi bo‘yicha ma’lumotlar).
4. Budde.com.au / Xalqaro Tahliliy Hisobotlar (O‘zbekiston telekommunikatsiya infratuzilmasi, ayniqsa Uztelecom va fixed segmenti bo‘yicha ma’lumotlar).
5. Hukumat Qarorlari va Strategik Dasturlar (O‘zbekiston Respublikasining telekommunikatsiya sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari va rivojlanish dasturlari).

UDK:338.48

**TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY BOSHQARUV
OMILLARINING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ ФАКТОРОВ РЕГИОНАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСТОЙЧИВОМ
РАЗВИТИИ ТУРИЗМА**

**THE IMPORTANCE OF REGIONAL GOVERNANCE FACTORS IN SUSTAINABLE
TOURISM DEVELOPMENT**

Karimov Shahbozxo‘ja Xamdamjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizmni barqaror rivojlantirish jarayonida hududiy boshqaruv omillarining tutgan o‘rni va ularning tizimli ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda barqaror rivojlanish konsepsiyasi United Nations World Tourism Organization tomonidan belgilangan tamoyillar asosida yoritilib, hududiy boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Maqolada hududiy infratuzilma rivojlanganlik darajasi, investitsion muhit, institutsional boshqaruv sifati, mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda marketing strategiyalarining turizm barqarorligiga ta’siri kompleks baholash usullari asosida tahlil qilinadi.

Shuningdek, mintaqaviy turizm siyosatini shakllantirishda hududiy boshqaruvning strategik rejalashtirish, klasterlashuv va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridagi roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Turizm, barqaror rivojlanish, hududiy boshqaruv, mintaqaviy siyosat, turizm infratuzilmasi, institutsional muhit, investitsion jozibadorlik, turizm klasteri, davlat-xususiy sheriklik, hududiy raqobatbardoshlik.

В данной статье научно анализируется роль факторов территориального управления и их системное влияние в процессе устойчивого развития туризма. Концепция устойчивого развития раскрывается на основе принципов, определённых United Nations World Tourism Organization, при этом экономические, социальные и экологические компоненты территориального управления рассматриваются во взаимосвязи. В статье на основе комплексных методов оценки анализируется влияние уровня развития региональной